

Farg'ona viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-sentabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7276 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 151 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 125 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 27 349,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,9 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 3 536,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 136,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 21 628,2 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 185,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 159 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 29 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 130 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 19 993,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,1 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 19 176,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,7 % ga to'g'ri keldi Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,9 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Marg'ilon shahar (8,7 m.) va Bag'dod (8,4 m.), tumanlarida kuzatildi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 921 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 916 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 17 344,2 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: Tel: +998732419768	Ijrochi: N.Mahmudova Tel: +998732419768	Manzil: Farg'ona sh., Oq'yol ko'chasi, 104-a
---	--	---	--